

**OMON MUXTOR ROMANLARIDA KIRITMA VOQEALARNING  
AHAMIYATI**

*Yuldosheva Umida*

*O‘zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyati*

*Guliston davlat universiteti “Adabiyotshunoslik”*

*yo‘nalishi tayanch doktoranti*

**OMON MUXTOR ROMANLARIDA KIRITMA VOQEALARNING  
AHAMIYATI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Omon Muxtorning romanlarida kiritma voqealardan foydalanish ahorati yoritib berilgan. Muallifning “Ayollar mamlakati va saltanati”, “Ffu” romanlari tahlilga tortilgan. Kiritma voqealar istelohi ilmiy asoslangan.

**Kalit so‘zlar.** Kiritma voqea, epizod, syujet, unsur, emotsiya.

**ЗНАЧЕНИЕ ВСТУПИТЕЛЬНЫХ СОБЫТИЙ В РОМАНАХ АМОН  
МУХТОР**

**Абстрактный.** В этой статье освещается использование вводных событий в романах Амона Мухтара. Анализируются авторские романы «Страна женщин и королевство», «Ффу». Спрос на входные события научно обоснован.

**Ключевые слова.** Вступительное событие, эпизод, сюжет, элемент, эмоция.

**THE SIGNIFICANCE OF INTRODUCTORY EVENTS IN THE NOVELS  
OF AMON MUKHTOR**

**Abstract.** This article highlights the use of introductory events in Amon Mukhtar's novels. Author's novels "Country of Women and Kingdom", "Ffu" are analyzed. The demand for input events is scientifically based.

**Keywords.** Introduction event, episode, plot, element, emotion.

Syujetdan tashqari unsurlardan biri kiritma voqeadir. “Adabiy asardagi asosiy voqealar tizmasiga bevosita aloqador bo‘lmagan, lekin muayyan maqsadga bo‘ysundirilgan epizodlar kiritma voqealar, deb ataladi” [1-94]. Kiritma voqeada asardagi biror qahramoning hayoti, o‘tmish voqealari bayon qilinadi. U asarning umumiy mazmunida keskin burilish yasamaydi, asardagi voqealar tizmasida ham ajralib “begonalik qilib” turadi. Ammo bosh qahramon, shu bilan birga kitobxon mulohazalariga bilvosita ta’sir qiladi. Kiritma voqealar asarning badiiyligini oshiradi. Asarda ilgari surilayotgan g‘oyalarni yondosh voqea vositasida yana bir bor kitobxonga taqdim etadi, uni fikrlashga chorlaydi. Omon Muxtor oz asarlarida adabiyotning bu unsuridan ham keng va o‘rinli foydalana olgan. Uning bu izlanishlari ham asarlarida samara bermay qolmadi. Romanni yanada ta’sirli va jozibali bo‘lishining bir sababiga aylandi.

Omon Muxtorning “Ayollar mamlakati va saltanati” romanida epizodik obrazlardan biri bo‘lgan Toji akaning o‘tmishiga bir nazar tashlanadi. Bosh qahramon bo‘lgan Olim Toji aka haqida quyidagilarni xotirlaydi va bu xotirota asardagi keyingi voqealarga bilvosita bog‘lanib, badiiy zanjir hosil qiladi:

“Toji akaning Moyra (asli Mohiradir?!) degan qizi bor edi. (Dunyoda farzandi, ayniqsa qiziga mehribon bo‘lmagan ota bormi?! Olim qizchasini bekordan “Nodirai davron!” deb erkalamas!)

Qiaqasi...

Boya ko‘chaga miltiq ko‘tarib chiqqan bu odam – bir paytlar tengi yo‘q mashhur sozanda edi!

Dutor chertishda uning oldiga tushadigan zot topilmas edi!

U dutorni sayratib qolmay, tilga kiritar – so‘ylatar edi!

Shaharda deyarli barcha sozandalar uni Usta deyishar, kazoo-kazolar ko‘pincha o‘z davralariga chaqirib, bundan faxrlanishar edi!

Shunday yurib, bir kuni Toji akaning qizi bilan orasi buzildi.

U Moyra egri oyoq bosyapti deb, undan-bundan eshitib qoladi.

(Aslida bu g‘araz, hasaddan boshqa narsa emasdi! Birov sozingni o‘g‘irlyadi, birov ovozingni! Xudo asrasin... Moyraning gunohi yo‘q ekan! Uni bir yigit yoqtirib yurar ekan, xolos! Ammo bu keyinchalik bilinadi. O‘shanda esa... mish-mish, malomat yomon!)

Toji aka, uyga kirib kelgan qiziga, jahl ustida – qo‘lidagi qovun kesib o‘tirgan pichoqni otib yuboradi.

(U haqda ba‘zan, pichoq qo‘lidan “uchib” ketibdi, deyishadi!)

Qiz jarohatlanibmi, jarohatsizmi, shu ondayoq jon taslim qiladi...

Toji aka qilmishi aniq edi! Kazo-kazolar aralashib (“Tasodif o‘lim” deb xulosa yasab!) – uni saqlab qolishdi.

U endi har yerda dutor chertmaydi. Lekin o‘sha kazo-kazolarning hamon – xizmat ro‘yxatlarida turadi...” [2-89].

Asar davomda Toji akaga nisbatan kitobxon hech qanday munosabat bildirmay keladi. Ammo bu kiritma voqea sababli unga nisbatan, nafrat va achinish tuyg‘ulari birdaniga junbushga keladi. Roman yakunida Toji aka ayol kishi tomonidan (Baxtigul

– izoh bizniki) otib o‘ldiriladi. Ehtimol, bu shunchaki tasodif emasdir. Bu qismat, bu bir begunoh qizning o‘limi uchun tovondir. Muallif aynan mana shu xulosani berish uchun kiritma voqeani asarga qistirib o‘tgan edi. Asarning yetakchi g‘oyasi ayol xilqatining turfaligi va sadoqati bo‘lsa, Toji aka obrazi orqali adib hech bir jinoyat jazisiz qolmasligi kabi yondosh g‘oyani ham ilgari suradi. Garchi qonun oldida jazodan qutulib qolsa ham, ammo Haq oldida baribir qilmishiga yarasha jazolanadi. Kiritma voqealar asar syujetiga aloqador bo‘lmasa ham, ammo mantiqan mazmuniga bevosita bog‘lanadi.

Omon Muxtorning “Ffu” romanida ham kiritma voqea berilgan bo‘lib, yozuvchi bu adabiy unsur dan ko‘p foydalangan.

“Bu odamning ismi Abulfayz; u bir paytlar poytaxtda yashar edi. Otasi juda badavlat kishi edi.

O‘zi ham xatti-harakati ham beso‘naqay Abulfayz yoshligida qanday chiroyli bo‘lganligini tasavvur qilish qiyin. Otasi uni – undan ham ko‘hli bir qizga uylantirib qo‘ygan edi.

Ularning uyida to‘rt sandiq kitob bor edi.

U erka edi. Faqat do‘stlari bilan gurung qurib yurar va faqat ... kitob o‘qir edi.

Bir kuni kelib uning otasi qazo qildi.

Na dunyoda qanday qilib yashash kerakligini, na ishning ko‘zini bilardi. Sakkiz kunda otasining mol-mulkini yelga sovurdi.

Shundan keyin nozanin xotini uyda qolgan-qutganini “supurib” ketdi...

Chinmi, hazillashibmi, vaqtida Suqrot:

“Hech ikkilanmay uylanavur. Xotining yaxshi chiqsa, baxtli bo‘lasan. Yomon chiqsa – faylasuf!” – degan ekan.



Abulfayz birinchi xotinidan ajrab, faylasuf bo‘lmaganidek, endi kambag‘al qizga uylanib, baribir baxtli bo‘la olmadi.

Ro‘zg‘or tebratish, non toppish kerak edi!

U poytaxtdan qarindoshlarini “qora”lab, unut bir viloyatdagi, unut bir shaharga ko‘chib keldi.

Lekin qarindoshlaridan “is” chiqmadi.

Har xil ish bilan ham shug‘ullanib ko‘rdi, - natija bo‘lmadi.

Abulfayzga otasidan qolgan to‘rt sandiq kitob jondan aziz edi! Ichak quldirab turgach...

Bozorga yo‘l solib, yoymachilikka o‘tdi” [2-70].

Muallif ushbu kiritma voqea orqali kitobxonga hunar va ilm bo‘lmasa, kishining xor bo‘lishini yana bir karra uqtirib o‘tmoqchi. Asarning bosh qahramoni Toshtemir o‘z kasbining ustasi, ammo kibirga berilib insonlarga va halol hunariga nohaqlik qiladi. Bu xato. Abulfayzning to‘likka sho‘xlik qilib yurishi ham to‘g‘ri emas edi. Abulfayzning laqabi “Ezma” bo‘lib, o‘qiganlariga o‘zi amal qilmay, har kimga ezilib maslahat berishdan boshqasiga yaramasligini bildirdi. Achinarlisi, u maslahatni ham uddalab joyiga qo‘yolmaydi.

Kiritma voqealar asar mazmunini to‘ldirib, uni poetik jihatdan boyitadi. O‘quvchi bosh qahramondan boshqa epizodning ham hayoti bilan yaqindan tanishadi. Unda solishtirish, qiyoslash aspekti namoyon bo‘ladi. Ba‘zan muallif asarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirita olmagan, ammo muhim deb bilgan voqealarni ham kiritma voqealarda berib ketadi. Yoki, kitobxonning e‘tiborini atay bir fokusga qaratish uchun ham voqea kiritma shaklida beriladiki, agar u asarda oddiy voqea sifatida sochma tarzda berilsa, ehtimol kitobxon emotsiyasiga bu qadar ta’sir qila olmas edi. Kiritma

voqeaning o‘zi ham mustaqil halda bemalol hikoya janrida namoyon bo‘lsa bo‘ladi. Biroq, muallif uni aynan biror asari tarkibiga qo‘shdimi, demak, endi unga kitobxonga ma’naviy ozuqa berish vazifasidan tashqari biror ijodiy, badiiy maqsadga xizmat qilish mas’uliyati yuklanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xudoyberdiyev E. “Adabiyotshunoslikka kirish”. T.: Sharq nashriyoti, 2008.
2. Omon Muxtor “Ayollar mamlakati va saltanati”. T.: Sharq nashriyoti, 1997.
3. ziyo.net